

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF SIMILE IN UZBEK AND PASHTU LANGUAGES****Zafar Normatov**

Senior Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Rushana Rakhimova

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: linguistics, phraseological unit, comparison, phraseological unit, proverb, standard, metaphor.

Received: 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23

Abstract: This article compares information about linguoculturology and similar teeth, opinions of scientists, phraseological units in Pashto and Uzbek languages.

O‘ZBEK VA PASHTU TILLARIDA O‘XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**Zafar Normatov**

Katta o‘qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Rushana Raximova

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Lingvomadaniyatshunoslik, turg‘un, o‘xshatish, frazeologik birlik, maqol, etalon, metafora.

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslik va o‘xshatishlar haqida ma’lumotlar, olimlarning fikrlari, pashtu va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar qiyoslangan holda yoritilgan.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СРАВНЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И ПУШТУНСКОМ ЯЗЫКАХ

Зафар Норматов

Старший Преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Рушана Рахимова

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	языкознание, фразеологизм, сравнение, пословица, стандарт, метафора.	Аннотация:	В данной статье сопоставляются сведения о лингвокультурологии и подобных зубах, мнения ученых, фразеологизмы в пушту и узбекском языках.
------------------------	--	-------------------	--

KIRISH

Madaniy tilshunoslik – til va madaniy tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi tilshunoslikning bir bo‘limidir. Madaniy tilshunoslik turli tillar madaniy tushunchalarni, jumladan, madaniy naqshlarni, madaniy toifalarni va madaniy metaforalarni o‘z xususiyatlari orqali qanday aks ettirishini o‘rganadi.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N. Teliyava, V.V. Vorobyov, V.A. Maslova va boshqalarning ishlarida ko‘rindi. Lingvomadaniyatshunoslik chet elda vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.

ASOSIY QISM

Amerikalik lingvist Sapir-Uorf gipotezasiga ko‘ra, madaniy tilshunoslik “tilda aks ettirilgan madaniy qadriyatlarning amaldagi tizimi sifatida obyektlarni yaxlit nazariy va tavsifiy o‘rganish, lingvistik nisbiylik nazariyasiga asoslangan turli tillarning (xalqlarning) madaniy til sohalarini kontrastli tahlil qilish” deydi.

Rossiyalik professor, filologiya fanlari doktori Viktoriya Vladimirovna Krasnix lingvokulturologiyaga: “dunyoning milliy manzarasini, lingvistik ongni, mental-lingual kompleks xususiyatlarini o‘rganish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan til va nutqda madaniyatning namoyon bo‘lishi, aks etishi va fiksatsiyasini o‘rganuvchi fan”, deb ta’riflaydi.

E.I. Zinovieva va E.E. Yurkovaning ta’riflashicha, “Biz lingvokulturologiyani turli darajadagi til birliklarini, nutq faolligini, nutqiy xulq-atvorni, nutqni o‘rganish orqali ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilar dunyosi haqidagi bilimlarni ifodalashning turli usullarini o‘rganuvchi filologiya fani sifatida tan olishimiz mumkindek tuyuladi”, deydi.

O'xshatish nima? O'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o'rinda ma'lum predmet bir predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin. O'xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi.

M. Cheremisina tasnificha ular quyidagilardan tashkil topgan: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatish shakli. M. Cheremisina tasnifiga qo'shilgan holda N. Mahmudov o'xshatishning to'rt komponentini quyidagi formula asosida $\{A[(B)\beta]C\}$ aks ettiradi. O'xshatish komponentlarini ko'rsatishda D. Xudoyberganova mazkur tasnifga qo'shilgan holda N. Mahmudovning maqolasiga havola beradi.

O'xshatishlarning ikki turi farqlanadi:

1) erkin o'xshatishlar; 2) turg'un (doimiy) o'xshatishlar.

Erkin o'xshatishlar so'zlovchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. So'zlovchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan tinglovchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni tinglovchining ko'z o'ngida yaqqol gavdalandiradi.

Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqaror-lashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tilidan joy olib ulgurgan bo'ladi.

Xorijda lingvokulturologiya diqqat-e'tibor markazida bo'lib, bu sohaga oid shu kunga qadar amalga oshirilgan ishlar alohida e'tirofqa loyiqdir. Jumladan, rus lingvisti Nikolay Fyodorovich Alefirenkoning lingvokulturologiyaga bag'ishlangan o'quv qo'llanmasi o'n to'rt bobdan tashkil topgan.

Tilshunos Z.K. Sabitovanning "Lingvokulturologiya" deb nomlangan darsligidagi har bir mavzu keng ko'lamli tarzda yoritilganligini ko'rish mumkin. A. Maslova, "Lingvokulturologiya xalqning nafaqat qadimiy an'ana va urf-odatlarini, asrlar davomida shakllanib kelayotgan og'zaki ijod namunalari, balki xalq hayoti va turmush tarzi, madaniyati va urf-odatlarini, umuman, muayyan elat va millatning mental jihatlarini aks ettiruvchi zamonaviy nutq hodisalarini ham tadqiq etishi borasidagi nuqtai nazarlarini bildirgan".

O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A. Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N. Mahmudovning "Tilning

mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N. Sayidrahimovanning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar” kabi ishlarni keltirish mumkin.

O‘xshatishlar haqida ham ko‘p maqolalar yozilgan. Jumladan: N. Umarova va M. Karimjonovanning “O‘xshatish konstruksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari” va “Dunyo tilshunosligida o‘xshatish konstruksiyalariga munosabat” nomli maqolalari mavjud.

O‘rganishlar jarayonida o‘xshatish va lingvomadaniyatshunoslik haqida ma’lumotlar, olimlarning fikrlari, o‘zbek va pashtu tillaridagi frazeologik birliklar va maqollar keltirilgan bo‘lib, mavzuni yoritishda tavsifiy va qiyosiy metodlardan foydalanilgan.

Bizning eng katta muammomiz pashtu tilida o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyati o‘rganilmaganidir. Bundan kelib chiqib, endi biz ikki tildagi o‘xshatishlarni lingvomadaniyat orqali qiyoslagan holda va pashtu tili va shu bilan birga adabiyoti ixlosmandlari uchun bu sohani yoritib berishni maqsad qildik.

Lingvomadaniyatshunoslikni qiziqitiruvchi birliklar sirasiga madaniy etalonlashgan, turg‘unlashgan, obrazli-metaforik birliklar (afsona, presendent nomlar, maqol, matal, ibora), metafora va o‘xshatishlarni kiritish mumkin.

Xo‘sh, o‘xshatishlar lingvomadaniy jihatdan qanday tahlil etilmog‘i lozim? Albatta, bunda o‘xshatish etalonlari muhim. Nimaning nimaga o‘xshatilayotganini, bunga nima imkon berayotgani o‘xshatish etalonlarining leksikografik tahlili orqali ochilishi mumkin.

Masalan: Pashtu tilidagi “سوله او جگره” (“Urush va tinchlik”) nomli ertakda “tinchlik” ya’ni “سوله” oq kabutar (کوتره)ga, o‘zbeklarda esa “humo qushi” ga o‘xshatiladi, “جگره” ya’ni “urush” “olov” (اور) ga o‘zbeklarda esa “qora\qonli bulut”ga o‘xshatilgan. Bundan tashqari o‘zbek tilidagi “sabr kosasi to ‘lmoq” iborasi pashtu tilida “زما خو نوره د صبر کاسه ډکه ده” ko‘rinishida, rus tilida “чаша терпения моего уже переполнена” ko‘rinishida, “besh barmog‘ini og‘ziga solmoq” iborasi pashtuchada “پنځه گوټي په خوله ننيستل”, rus tilida “пять пальцев не входят в рот” ko‘rinishida, “xursandlikdan to‘niga sig ‘maslik” iborasi pashtu tilida “د خوشحالی نه په جامو کښي نه ځايېدل” rus tilida “не вмещаться от радости в одежде”, “qo‘lga tushmoq” iborasi pashtu tilida “تر لاس راتلل”, rus tilida “попадаться в руки” ko‘rinishidadir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, yuqoridagi ma’lumot va misollardan kelib chiqqan holda o‘xshatish va lingvomadaniyatni bevosita bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni o‘xshatishlar bevosita lingvomadaniyatshunoslikning tarkibida bo‘ladi.

O'xshatishlarni nutqda qo'llash holatlari ko'p bo'lgani sababli, ularni o'rganishning ahamiyati ham oshib bormoqda. O'xshatishlar qo'llanilgan gaplar oddiy gaplarga nisbatan jozibador va bejirim bo'lib, so'zlovchi tinglovchini o'ziga yanada jalb qilish niyatida ham o'xshatishlardan foydalanadi. Jumladan, pashtu tilidagi o'xshatishlar ham o'zining jimjimadorligi bilan ajralib turadi.

Pashtu va o'zbek tillaridagi o'xshatishlarga kelsak, ushbu tillar aynan o'xshash bo'lmasada, bir til oilasiga kirmasada, qadim davrlardan o'q ikki millat vakillari orasida mustahkam madaniy hamda tijoriy aloqalar mavjudligi, bundan tashqari Afg'oniston va O'zbekistonning tarixiy rishtalari hamda xalqlarining diniy e'tiqodi mushtarakligi, yaqin qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilik va bordi-keldilar sababli bevosita madaniyatida ham yaqinlik bor degan xulosaga kelish mushkul emas. Bu esa kelgusida ushbu mavzu doirasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan izlanishlarimizning yanada chuqurlashishiga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amonova Mahbuba Olimovna. Lingvomadaniyatshunoslik fanining tarixiy va nazariy negizlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 12. | Issue 4 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor.S 1556.
2. Аристотель. Поэтика. – Т.: Янги аср авлоди, 2004.
3. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. – М.: Высш. шк., 1991. – 140 с.
4. Зиновьева Е. И., Юрков Е. Е. Лингвокультурология: теория и практика. - СПб.: МИРС, 2009.
5. Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М., 2002.
6. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан , 1977.
7. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I. – Тошкент: ЎзФА, 1963.
8. Махмудов Н. Ойбек шеърлятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси. – Ж. Ўзбек тили ва адабиёти. 1983, №4. Б.48.
9. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. – М., 1960.
10. Худойберганава Д.С. Семантическийи стилистический анализ конструкцию подобиения в узбекском языке: АКД. – Тошкент, 1999.
11. Черемисина М. Сравнительные конструкции русского языка. Новосибирск, 1976.
12. Sharifian, 2011
13. <https://www.Fayllar.org>
14. Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. – Ташент: Фан, 1985. – С. 86-92.